

**YUSUF XOS HOJIBNING „QUTADG’U BILIG”ASARI SHAXS
KAMOLIDA YETAKCHI O’RINDA**

Sidiqova Barno Komiljonovna

Namangan Davlat Pedagogika Instituti talabasi

(+99894)1601026

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojib va uning nodir asari bo’lmish „Qutadg’u bilig” asari haqida ma’lumotlar berib o’tilgan. Va bu asardagi qahramonlar ularning obrazlari yoritib o’tilgan. Bundan tashqari bu asar qaysi tilda, janrda yozilgani, nechi baytdan iborat ekanligi haqida bilimlarga ega bo’lish mumkin. Shuning bilan birgalikda asardagi asosiy g’oyalar ham yoritib berilgan..*

Kalit so’zlar: *Adolatparvarlik, laxja, fe’l atvor, inson kamoloti, axloq, ilm-ma’rifat, obraz, intellektual*

Krish:

Sharq adabiyoti va falsafasining durdonasi sanalgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari inson kamoloti, axloqiy poklik, ilm-ma’rifat va adolatli jamiyat qurish g’oyalarini o’zida mujassam etgan bebaho yodgorlikdir. XI asrda yozilgan bu didaktik doston nafaqat o’z davrining siyosiy va ijtimoiy muammolariga yechim bo’lib xizmat qilgan, balki bugungi kunda ham komil inson tarbiyasida muhim manba bo’lib qolmoqda . Yusuf Xos Hojibning ushbu asari 1069–1070 yillar yozilgan bo’lib, bu asar qadimgi turkiy til (qoraxoniylar lahjasi) da yozilgan. Va shuning bilan birgalikda asar janri: Didaktik-doston (axloqiy-siyosiy pandnoma) bo’lib “Saodatga eltuvchi bilim” yoki “Baxtli bo’lish ilmi” degan ma’nolarni anglatadi. “Qutadg’u bilig” davlat boshqaruvi, adolat, donishmandlik, axloqiy fazilatlar, insoniylik, ilm va odob haqidagi fikrlarni ifoda etadi. U jamiyatni tartibga solish, rahbar va fuqarolar o’rtasidagi munosabatlarni muvozanatda ushlashni targ’ib qiladi. Asar masnaviy shaklida yozilgan – 6645 baytdan iborat. To’rt asosiy obraz orqali g’oyalar bayon etiladi:

1. Kuntug’di – adolatni ifodalaydi (hukmdor).

2. Ayto'ldi – baxt va davlatni ifodalaydi (vazir).
3. Odg'urmish – aql va donishmandlik timsoli (zohid).
4. Uzg'mish – aqibat va tavba ramzi (voiz yoki rohib).

Bu to'rt obraz orqali turli fazilatlar va davlat boshqaruvi tamoyillari tushuntiriladi. Va bu asar quyidagi to'rt asosiy g'oyalarni o'z ichiga oladi.

Adolatparvarlik: Asarda hukmdorning eng oliy burchi – adolatni ta'minlash deb qaraladi.

Ilm va aqlga e'tibor: Bilimdon va donishmand insonlar qadrlanadi. Ilm jamiyatni rivojlantiradi, deya targ'ib qilinadi.

Axloqiy fazilatlar: Halollik, sabr, vijdon, sadoqat, mehnatsevarlik targ'ib qilinadi.

Diniy va dunyoviy uyg'unlik: Asarda islomiy dunyoqarash asosida dunyoviy ishlarni boshqarish muhim deb aytiladi.

Siyosiy donolik: Asar davlatni boshqarish bo'yicha muhim maslahatlar va tamoyillarni o'z ichiga oladi.

Qutadg'u bilig' — turkiy xalqlar adabiyotidagi ilk siyosiy-falsafiy asarlardan biridir. U Sharq Uyg'onish davriga mansub bo'lib, o'z davrining intellektual darajasini aks ettiradi. Asar uchta qo'lyozma nusxada saqlanadi: Namangan, Vena va Farg'ona nusxalari. Bugungi kunda ham "Qutadg'u bilig'"dagi fikrlar — adolatli jamiyat, bilimli rahbar, axloqiy barkamollik — dolzarb hisoblanadi. O'zbekistonda bu asar milliy o'zlik, ma'naviyat va ma'rifat targ'iboti doirasida keng o'rganiladi.

Asosiy qism:

Qutadg'u bilig'da Yusuf Xos Hojib inson kamolotini quyidagi asosiy fazilatlar orqali talqin etadi:

1. Adolat. Asarda adolat eng oliy qadriyat sifatida ko'rsatiladi. Hukmdor Kuntug'di timsolida adolatli boshqaruvning jamiyat barqarorligiga ta'siri yoritiladi. Muallif adolatni inson kamolotining asosi deb biladi.

2. Ilm va aql. Odg'urmish obrazida aql va ilmning inson hayotidagi o'rni ta'kidlanadi. Yusuf Xos Hojib ilm-fan orqali inson o'zini va jamiyatni yuksaltirishi

mumkinligini uqtiradi.

3. Qanoat.Uzg'mish obrazi orqali qanoat va tavba fazilatlarini targ'ib qilinadi. Muallif qanoatni komil insonning ajralmas xususiyati deb biladi.

4. Axloqiy poklik.Asarda halollik, sabr, vijdon, sadoqat kabi axloqiy fazilatlar komil inson tarbiyasida muhim omillar sifatida ko'rsatiladi.

Yusuf Xos Hojib inson kamolotini jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'laydi. Uning fikricha, har bir inson o'zini tarbiyalab, komil inson bo'lishga intilsa, jamiyatda adolat va farovonlik qaror topadi. Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" kitobining an'anaviy boshlamasidan keyin insonning haqiqiy baxti bilimda ekanligini bayon etadi. U ilm, zakovatning ahamiyati haqida fikr yuritish. bilan birga unga alohida boblar ham bag'ishlangan. Lekin olim faqat ilm-ma'rifatning ahamiyatini ko'rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi o'rnini ham yoritadi. U bilimli buyuk, uquvni ulug' deb ta'riflaydi.

Chunki zakovatli inson ulug' bo'ladi, bilimli kishi buyuk bo'ladi, deb ilmiy kishilarni asl toifadagi kishilarga qo'shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishini aytadi. O'sha davrdayoq olim "Bilim hatto osmon sari yo'l ochur" deb bashorat qiladi. U dunyoda odam paydo bo'libdiki, faqat bilimli kishilargina ezgu ish qilib, adolatli siyosat yuxgizib kelgan, ana shu bilim va zakovati tufayli kishilar razolatdan poklanganligini ta'riflaydi. Hatto hukmdorlar ham yurtini, davlatni aql, ilm, zakovat bilan idora etsa, el-yurt farovon bo'ladi, to'q va tinch hayot kechiradi, deydi. U kuch va qurolni aql va bilimdan keyingi ikkinchi o'ringa qo'yadi. Shuning uchun (ya'ni har yerda ma'lum xudo) insonni yaratti, tanladi, Unga hunar, bilim va uquv berdi. Unga ko'ngil (ya'ni aql) berdi, tilini yo'riq (ravon) qildi, Andisha, xulq hamda go'zal fe'l ato qildi, Bilim berdi, (shu tufayli) inson bu kun ulug'likka erishdi. Uquv berdi, so'ng (shu tufayli berk) tugunlar yozildi.

Yusuf Xos Hojib ilmiy, ma'rifatli kishilarni qadrlash kerak, chunki ular mash'al kabi yo'lni yoritib, to'g'ri yo'l ko'rsatadi, yaxshi-yomonni farq etishni o'rgatadi, deydi. Shuning uchun olimlarni hurmat etish kerakligini ta'kidlab, ilm ahlini o'ta qadrlasa, ilmsizlarni johil kishilar deb biladi. Agar shunday johillar

mansab va amalga ega bo'lsa, ular egallagan to'mi poygak deb biladi. Dunyoda inson bilim va zakovati tufayli orzu-tilaklarga, ulug'likka erishishi muxnkinligini aytadi. Lekin shunday bilim va zakovatning qadriga faqat xuddi o'zlariga o'xshagan donolar va zakovatlilar yetadi, johil va telbalar bunday xislatlarga ega emas, deydi. Chunki jamiyatdagi barcha xatolar bilimsizlik, nodonlik, jaholat tufayli sodir bo'lishidan u qayg'uga tushadi, hayotda nodon va johillar ko'payib ketganligidan afsuslanadi. U yurti idora etuvchilari va xalqni boshqaruvchilari ikki toifaga bo'lib, birinchisi adolatli siyosatni yurituvchi beklar va ikkinchisi dono olimlar deydi.

Chunki siyosatchilar yurti boshqarsa, olimlar ma'rifiy yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Olim bilimni ziyoga, tengi yo'q javohirga o'xshatib, u insonni yuksaltiradi, jahonning sir-asrorini bilib olishga yordam beradi, deydi. Insoniyat nimaga erishgan bo'lsa, bilim tufayli erishganligini ta'kidlaydi. Ammo bu boylikni hech kim o'g'iray olmaydi, deb bilim va zakovatni muqaddas do'st, mehribon qarindosh, kiyim va ozuqa sifatida ta'riflaydi. Lekin Yusuf Xos Hojib ilm-fanni anglashni targ'ib etibgina qolmasdan, uni hayotga tatbiq etish, amalda qo'llay bilishga ham da'vat etadi. Yusuf Xos Hojib insonga xizmat etmagan bilimni dengiz tubida foydalanilmay yotgan injuga o'xshatadi. Shuningdek, yer ostida yotgan oltinni ham qazib olinsa, beklar boshiga toj bo'lganidek, ilmni ham foydali narsalarga sarf etishga da'vat etadi.

Olim bilimlilik va bilimsizlikning natijasi haqida ham fikr yuritir ekan, inson bilimsiz, nodon, johil bo'lsa, yaramas ishlar qilishi, aksincha, bilimli, dono, zukko bo'lsa ezgu ishlari ro'yobga chiqarishini ta'riflash bilan kishilari tinmay ilm olishga undaydi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, buyuk alloma mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va moddiy, ma'naviy yuksalishida, el-u xalqning boy va farovon turmushi-barchasi ilm va ma'rifatning ravnaqiga bog'liq ekanligini to'g'ri va ishonarli dalillar bilan badiiy ifodasini bera olgan va o'zi ham ana shu ezgu ishni amalga oshirish uchun tinmay faoliyat ko'rsatgan. Bunda dastlab, barcha yaxshi ishlarning manbaini ezgulik, yomon ishlarning asosini essizlik nomlari bilan talqin etadi. U inson hayotda qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yo yomon

nom oladi, deydi.

Alloma barcha ezgulikning boshi til odobi, asar uning foyda va zararlariga bag'ishlanadi deya ta'kidlaydi. Til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'z, deydi. Insoniy munosabatlarning eng oliy mezoni sanalgan hunnat va ehtiromni tarkib toptirishning barcha ko'rinishlari asarda o'z ifodasini topgan.

Xulosa:

“Qutadg‘u bilig” asari komil inson tarbiyasida muhim manba bo‘lib, undagi g‘oyalar bugungi kunda ham dolzarbdir. Yusuf Xos Hojibning bu asari orqali inson o‘zini tarbiyalab, jamiyatda adolat va farovonlikka erishishi mumkin. Bundan tashqari bu asar kelajagimiz bo‘lmish yosh avlod tarbiyasida o‘zining beqiyos ahamiyatiga egadir. Shuning bilan bilan birgalikda ushbu asar siyosiy jihatdan ham yoshlarga kerakli bilim, tajribalarni ko‘rsata oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy Pedagogika. Toshkent-2018.
2. Pedagogika Tarixi. Komiljon Hoshimov, Sanobar Nishonova. Toshkent-2005
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/qutadg-u-bilig-dostonining-manbalari-va-uning-or-ganilishi>.